
TOSHLOQDA MAHALLALAR INFRATUZILMASI YAXSHILANADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 25 oktyabrdagi "2022-2023 yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga asosan 2022-2023 yillarda mahallalar infratuzilmasini rivojlantirish dasturi doirasida 2023 yilda amalga oshiriladigan ob'yektlarning manzilli ro'yxati tasdiqlangan bo'lib, tumandagi mahallalar infratuzilmasini yaxshilash borasida tizimli ishlar amalga oshirilishi belgilangan.

Mazkur qaror bo'yicha tumandagi mahallalarda 1 tadan muammo o'rganilib, xal etish 15 dekabrga qadar belgilangan. Xozirgi kunda tayyorlanayotgan loyiha smeta hujjatlarida mahallalarni obod qilish, qishloq va mahallalarda infratuzilma bilan bog'liq eng dolzarb masalalarni tizimli hal etish, xususan, joylarda ichki yo'llar, ichimlik suv, elektr energiyasi va gaz ta'minotini, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport va boshqa infratuzilma ob'yektlarini yaxshilash borasida bir qator ishlar bajariladi.

Qishloqlarda aholi muammolarini o'rganish hamda qarorda belgilangan vazifalarni fuqarolarga batafsil yetkazish maqsadida sektor rahbarlari tomonidan uchrashuvlar tashkil etilmoqda.

Toshloq tumani hokimi, 1-sektor rahbari Abduqaxxor Djurabayev hududlarda amalga oshiriladigan bunyodkorlik ishlarni rejalashtirish hamda qishloq va mahallalarda infratuzilma bilan bog'liq eng dolzarb masalalarni tizimli hal etish maqsadida Istiqlol, Quyi Yakkatut hamda Soybo'yi MFYlar fuqarolari bilan uchrashdi. Unda Prezident qarori ijrosini ta'minlash maqsadida belgilangan chora-tadbirlarning o'z vaqtida

2022-11-07 07:54:21